


# **NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**



## **NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 69-211-72-00  
[www.namstat.uz](http://www.namstat.uz)**

## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2023-yil yanvar-avgust oylarida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-avgust oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 13 184,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,9 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust  
mlrd. so'mda



**B**

Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash

**C**

Ishlab chiqarish  
sanoati

**D**


Elektr, gaz bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash

**E**


Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust  
FHI, % da




yanvar-avgust  
ulushi, % da



## 2023- yil yanvar-avgust oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 116,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

2023- yil yanvar-avgust oylarida



2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 842,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,2 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,4 % (8,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,1 % (12,4 %) va quyi texnologiyalisi – 75,0 % (77,6 %) ni tashkil etdi.








## 2023- yil yanvar-avgust oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,2 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,5 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %), elektr uskunolari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,9 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,4 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,2 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,4 % (2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 %) ni tashkil

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



## 2023- yil yanvar-avgust oylarida




2023-yilning yanvar-avgust oylari davomida jami sanoatda 27,7 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 65,8 % ga kamaygan ), 9,1 ming tonna paxta tolasi (24,8 % kamaygan), 14,4 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (63,9 % ga kamaygan) hamda 16,3 ming tonna paxta chigiti (21,3 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                       | 2022- yil yanvar-avgust | 2023- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|-------------------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Omuxta yem, ming tonna                    | 39,9                    | 14,4                    | -25,5     |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna | 80,9                    | 27,7                    | -53,2     |
| Paxta tolasi, ming tonna                  | 12,1                    | 9,1                     | - 3,0     |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t       | 9,1                     | 5,6                     | - 3,5     |

### Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar-avgust oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 1,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 93,6 % bo'lgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 0,6 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 21,5 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 75,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 388,4 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 3,6 % ni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 782,1 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.




### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 811,5 mlrd so'mni, joriy 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 938,5 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 127,0 mlrd so'mga ortgan.



### Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 322,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 501,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 179,1 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2022-yilning yanvar-avgust oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 93,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 107,4 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 472,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ja'mi ishlab chiqariladigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 10,0 % ni, ya'ni jami 1 090,0 mlrd so'mni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 11,5 % ni tashkil etib, 1 520,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 430,9 mlrd. so'mga oshgan.



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 359,4 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida Namangan viloyati bo'yicha 448,7 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, tashkil etdi.

2022-yil

159,3 %

2023-yil

104,0 %

### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 7,5 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 2,9 mlrd. so'mga ko'payib, 10,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil

98,1 %

2023-yil

105,9 %

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, yani 154,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 107,6 mlrd. so'mga ko'paygan va 261,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil

105,4 %

2023-yil


119,5 %

## 2023- yil yanvar-avgust oylarida

### Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 157,5 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 16,4 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 55,1 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari            | 2022- yil yanvar-avgust | 2023- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|--------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s     | 4 184,9                 | 4 498,0                 | 313,1     |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 49,6                    | 41,5                    | - 8,1     |



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 134,5 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                                                                                      | 2022- yil yanvar-avgust | 2023- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|-------------------------|-----------|
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm                          | 60,4                    | 73,5                    | 13,1      |
| Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 13,9                    | 22,2                    | 8,3       |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 13,1 mlrd. so'm yoki 21,7 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 8,3 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 525,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish 106,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,9 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari



92,5 %

2023- yil  
yanvar-avgust



109,1 %

2022- yil  
yanvar-avgust



#### Nooziq-ovqat mahsulotlar



116,3 %

2023- yil  
yanvar-avgust



124,1 %


2022- yil  
yanvar-avgust




Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 46,5 % ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 11,1 %, Kosonsoy tumani 9,4 % ni, Chust tumani 8,1 % ni, Uychi tumani 4,9 % ni, Namangan tumani 4,9 %, Chortoq tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

## 2023- yil yanvar-avgust oylarida Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish.


yanvar-avgust  
mlrd.so'm




yanvar-avgust  
o'sish sur'ati




Oziq-ovqat  
mahsulotlar ishlab chiqarish  
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Nooziq-ovqat  
mahsulotlar ishlab chiqarish  
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati




Jami iste'mol mollari ishlab  
chiqarish hajmida oziq-ovqat  
mahsulotlarining ulushi




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish  
hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining  
ulushi

yanvar-avgust  
o'sish sur'ati



yanvar-avgust  
o'sish sur'ati




## 2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 487,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 18,9 % ni tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-avgust)

